

YOSHLARDA HUQUQIY BILIMLARINI ORTIRISHNING FALSAFIY HAMDA
PSIXOLOGIK TALQINI

Raxmatov Faxriddin Umarovich

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti erkin tadqiqotchisi*

Annatatsiya: *Maqolada yoshlarda huquqiy bilimlarini ortirishning falsafiy hamda psixologik talqini o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Huquqiy bilimlarni shaxs tomonidan o'zlashtirishning muhim shartlaridan biri – fanga oid tushunchalarning shakllanganligi va ularning kundalik amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga egaligi bilan tavsiflanishidir.*

Kalit so'zlar: *dialekt, mantiq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, mas'ul bo'lgan ota-onalar, o'qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar.*

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ У МОЛОДЕЖИ
ФИЛОСОФСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация: *В статье рассматривается философско-психологическая интерпретация повышения правовых знаний среди молодежи. Согласно анализу научных источников, возникла необходимость исследования вопроса о правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития личности. Одним из важных условий усвоения человеком юридических знаний является формирование понятий, связанных с наукой, и их описание путем обладания навыками применения их в повседневной практике.*

Ключевые слова: *дialekt, логика, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, воспитание молодежи, ответственные родители, педагоги-воспитатели, общество, компетентная молодежь, приоритетные задачи, проблемы, возникающие в образовании.*

INCREASE THEIR LEGAL KNOWLEDGE IN YOUTH
PHILOSOPHICAL AND PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION

Abstract: *The article examines the philosophical and psychological interpretation of increasing legal knowledge among young people. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. One of the important conditions for the assimilation of legal knowledge by a person is the formation of*

concepts related to science and their description by having the skills to apply them in everyday practice.

Key words: *dialect, logic, legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, responsible parents, teachers-educators, society, competent youth, priority tasks, problems arising in education.*

Buginki kunda jahonda globallashuv va axborotlashuv jarayonlarining jadal sur'atlardagi rivoji davrida inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy savodxonlikni oshirish va uning ustuvorligini ta'minlash dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy ta'lim va tarbiyani takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. «Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, ...ular 2 milliard kishini tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi shu yoshlarimizning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq».¹⁰ Shu jihatdan yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifini O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tdi.

Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Mirsharif Jurjoni ham Ibn Sino kabi mantiqni «bilish haqidagi fan» sifatida ko'rib o'tadi. Uning ta'limotiga ko'ra, mantiq fani bilish nazariyasi hisoblanmaydi. Bilish jarayonida biz - tushuncha va mulohazalar orqali yangi, noaniq narsa haqida fikrga ega bo'lamiz, deb ta'kidlaydi. U har qanday fikr tuzilishiga ko'ra materiya va shakldan iborat, shuning uchun to'g'ri mantiqiy xatolar fikrning mazmuniga va shakliga xosdir, deb yozadi. Jurjoniyning fikricha, tushuncha bu qandaydir individual narsa hisoblanadi. U asosan tushunchalarning kelib chiqishi va ko'rinishiga e'tibor qaratadi. Tushunchaning paydo bo'lishi juda keng va katta ma'noni oladi, uning ko'rinishi esa qisqa bo'ladi. U tushunchani ikkiga: yakka va umumiy tushunchalarga bo'ladi; yakka tushunchaning o'zidan «haqiqiy yakka»sini tanlab oladi. U yakka tushunchaga ta'rif berib, «yakka tushuncha - yakka predmetdan tashkil topgan bo'lib, unda faqat shu predmetning o'zi haqidagi fikr bayon qilinadi», deb ta'kidlaydi.

Jurjoniyning ta'limoticha, tushuncha va hukm o'rtasida farq bor. Fikrda nimadir tasdiqlansa yoki inkor etilsa, bu hukm xisoblanadi. Hukm chin yoki xato bo'lishi mumkin [11].

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 20 сентябрь БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи/ Халқ сўзи”, 2017 й, 23 сентябрь №192 (6886).

Fikr yuritishning muhim bosqichlaridan biri – bu xulosa chiqarish hisoblanadi, deydi Jurjoniy. U xulosa chiqarishning uch turga: sillogizm, induksiya, analogiyaga ajratadi. Sillogizm xulosa chiqarishning eng asosiy ko‘rinishi hisoblanadi. Induksiya va analogiya orqali xulosa chiqarish farazga olib keladi, ular chin bilimni bera olmaydi. Jurjoniy sillogizmni Ibn Sino kabi ikkiga bo‘ladi: birlashtiruvchi va ajratuvchi. U mantiqiy isbotlashga ham to‘xtalib o‘tadi. Isbotlash uch xil bo‘ladi: 1) Umumiydan yakkaga qarab isbot qilish – sillogizm. 2) Yakkadan umumiylikka qarab isbot qilish – induktiv isbotlash 3) Analogiya – bunda yakkadan-yakkani isbot qiladi.

Tushuncha tafakkurning asosiy shakli bo‘lib, o‘quvchilar aqliy rivojlanishining muhim omili va o‘quv harakatlarining muhim obyekti sanaladi. O‘quv predmetlarining barchasida tushunchalarda minimal darajadagi bilimlar aks etgan. O‘quv mazmunining asosiy birligi sifatida tushunchaga e‘tibor qaratiladi. U o‘zida predmet va hodisalarning mazmunini, umumlashtirish natijasini aks ettiradi. Qonunlar, nazariyalar, g‘oyalar ilmiy tushunchalar shaklida yoritiladi. Tushunchalar obyektning majmui, chunki ular predmet va hodisalarning muhim alomati va munosabatlarini aks ettiradi.

Tushunchalarni o‘zlashtirish ilmiy bilish jarayoni bo‘lib, biror bir predmet yoki voqeya-hodisani bilmaslikdan bilishga o‘tishning yakuniy bosqichidir. Bilish hissiydan mavhum tafakkur bosqichiga o‘tish yo‘li bo‘lib, tushunchalar sifatida yangi bilimlar namoyon bo‘ladi. Bilishning bu yo‘li tushunchalarni shakllantirish va rivojlanish yo‘li tarzda ro‘yobga chiqadi.

Tushunchalarning rivojlanishi ta‘lim amaliyotida bilish jarayonining harakatga keltiruvchi asosiy kuchi hisoblanadi. Tushuncha shakllanganligining muhim jihati uning mazmunidir. Tafovut qiluvchi belgilar to‘plami, mazmundagi asosiy yadro tushunchaning muhim belgilari sanaladi.

Muhim belgilar miqdorining mavjudligi predmetning to‘liq aks etishini tushuncha belgilaydi. Tushunchaning murakkablik darajasi predmet va hodisalarning to‘liq aks ettirganligiga bog‘liq. Tushuncha mazmunining tuzilishi, mazmun elementlarining tartiblanganligiga, barqaror aloqalari va elementlarning o‘zaro munosabatlariga bog‘liqdir.

Tushunchalarning shakllanganligi va rivojlanganligi tayyor bilimlarni yod olish bilan emas, balki o‘quvchilarning aqliy harakatlarini yuzaga chiqarishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqich bir qator bosqichlar orqali amalga oshadi: tushunchani o‘zlashtirish (idrok-tasavvur-tushunchalar tizimi).

Oldingi bilimlarni to‘plash - bu bir qator yuridik tushunchalarini aniqlashning shart-sharoitlaridan biridir. Bu holat tushunchalar shakllanishi va rivojlanishidagi uch bosqichni ajratib ko‘rsatishga asosdir: I – ma‘lum tushunchaning mazmunini tashkil etuvchi elementlarni belgilovchi tayanch bilimlarni to‘plash; II – tushunchaning ushbu asosiga ko‘ra, mazmun elementlarini aniqlash va sintezlash; III – shakllangan tushuncha yordamida yaxlit bilimlarni mustahkamlash va keyinchalik ularni rivojlantirish. Yuridik tushunchalarining shakllanishi va rivojlanishi o‘zida quyidagi

reja asosida amalga oshiriladigan murakkab jarayon hisoblanadi: idrok-tasavvur-tushuncha-tushunchalar tizimi, tayanch bilimlar-tushunchalarni saralash va mustahkamlash – ushbu tizimda kelajakda tushunchalarni rivojlantirish.

Bugungi sosial-iqtisodiy, sosial-madaniy va huquqiy shart-sharoit jamiyat oldida, ta'lim oldida muhim talablarni qo'ymoqdaki, unda o'quvchi shaxsini jamiyatning huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga hamohang tarzda ularning bilimni o'stirish, huquqiy jihatdan savodxonligini ta'minlash, qonunda belgilangan huquq me'yorlariga amal qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. Ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarda yuridik savodxonlikni ta'minlash fan doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish va faoliyatini ongli boshqarishga o'rgatishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda esa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida huquqshunoslik faniga doir bilim va tushunchalarni tarkib toptirish muhim o'rin tutadi. Yuridik tushunchalarini o'zlashtirishning asosida o'quvchi jamiyat va o'z manfaatlarini qonuniy jihatdan boshqarishning negiziga ega bo'lishi, qonun, huquq normalaridan chetga og'ishmaslikka o'rgatishdan iborat masalani ta'minlash g'oyasini o'zida mujassamlashtiradi.

Yuqoridagi keltirilgan izohlarda tushuncha deganda qanday tasavvurga ega bo'lishimiz doirasidagi ma'lum umumlashtirilgan munosabatlarning majmui keltirilgan. Endi asosiy e'tiborni yuridik tushunchalarini shakllantirishning falsafiy talqiniga aniqlik kiritishga qaratamiz. Chunki huquq metodologlari yuridik tushunchalarini shakllantirish huquqshunoslik fani predmeti mazmunini aniqlashtirish hisobida ta'minlashini qayd etadilar. Mazkur muammoni hal etishda turli mualliflik yondashuvlari bo'lishi, tabiiy. Yuridik tushunchalarini shakllantirishning metodologik masalalari ma'lum tadqiqot yo'nalishlarida olib borilgan (S.S.Alekseyev, V.Vasilyev, S.N.Alesandrova L.N.Karandasova, A.M.Kunijev; O.V.Martishin; Ye.A.Pevsova) [11; 12].

Yuqorida mualliflarning nomlari keltirib o'tilgan ayrim tadqiqotlarda yuridik tushunchalari shakllanishining metodologik masalalarida cheklanishlar mavjud. Huquqiy voqyelikni o'z fanining doirasida tadqiq etishga to'g'ri keladi. Shu sababli huquqning to'laqonli nazariy tasvirini huquqshunoslik ta'minlaydi. Ushbu ma'noda V.Vasilyev quyidagicha izohlaydi: “davlat va davlat huquqi nazariyasidagi kategoriyalarda huquq “o'z-o'zi bilan” aynan qo'llanadiki, boshqa ijtimoiy fanlardagi tushuncha va kategoriyalarda” “boshqalar bilan” tufayli davlat va huquqning iqtisod, siyosat, madaniyat, axloq va boshqalardagi qo'llashnish tomonlari va chegaralariga o'tishini yoritib beradi”.

S.S.Alekseyevning ta'kidlashicha, huquqshunoslik huquq tushunchalarini shakllantiradi va bu tushunchalarning tizimini ilmiy predmet darajasigacha bo'lgan tushunchalarga belgilab beradi.

L.N.Karandasova huquqshunoslikning predmeti va “predmet birligi”ni muhokama qilish asosida, “Yuridik tushunchalari majmui qachonki, yuridik ma'noli boshlang'ich

tushunchalar, yuridik tushunchalarini kelib chiqish asosida abstrakt ko‘rinishdagi tasavvur va yaxlit huquq fanida tushunchalarining tizimida konkretlashganda ziddiyatsiz tizimni hosil qiladi”, deb yozgan edi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida yuridik tushunchalarining tuzilishi har xil prinsipga ko‘ra, tushunchalar tarkibiga ega bo‘ladi. Shu sababli ham tushunchalar fundamental va amaliy, abstrakt va konkret, qonunchilikda mustahkamlangan va mustahkamlanmagan singari tushunchalarga ajratiladi.

V.Vasilyev izlanishlarining ko‘rsatishicha, tushunchalarning shakllanishi huquq nazariyasi tushunchalari sohasi to‘rtta asosga ko‘ra tarkib topishi keltirilgan. Ularni quyidagicha ajratib ko‘rsatgan:

- yangi huquqiy kategoriyalarining shakllanishi;
- mavjud huquqiy kategoriyalarini aniqlashtirish, chuqurlashtirish va rivojlantirish;
- huquq nazariyasi kategoriyalaridan uning mantiqiy darajasiga mos emaslarini tarmoqlashtirish;
- o‘zini ishlatib bo‘lingan eski kategoriyalardan chetlatish.

Xorijda ham tushunchalarning shakllanishi borasida qator izlanishlar olib borilganligi kuzatildi. Ushbu izlanishlarning tadqiqot predmeti va yo‘nalishlari psixologik, pedagogik, falsafiy va yuridik fanlari bilan bog‘liq hamda fanlararo amalga oshirilgan. Masalan, yuridik sohada izoh berishda tarjimaning ahamiyati, arbitraj muhokamalarda g‘oya, tushuncha va uni amalga oshirish yo‘llari, huquqiy lingvistika, yuridik matnlarni tarjima qilishda tushunchalar o‘rtasidagi nomutanosibliklar, arbitraj sohada yuridik tushunchalari bilan bog‘liq muammolar, normativ pozitivizm, bolalar xulq-atvori, huquq va axloq normalariga bag‘ishlangan izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda tushunchalarni shakllanishidan ko‘ra, ularni yuridik faoliyat jarayonidagi namoyon bo‘lishi xususiyatlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan deyish mumkin.

E.Alcaraz, B.Hugheslarning olib borgan izlanishlari yuridik sohadagi voqyea-hodisalarni izohlaydigan tushunchalarning mazmun va mohiyatini aks ettiruvchi atamalar tahlil qilingan. Bu esa yuridik sohada zarur bo‘lgan izohlarning oson va to‘g‘ri amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

V.K.Bhatia va C.N.Candlin esa arbitraj sudlarda uchraydigan yuridik tushunchalari bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga harakat qilganlar. Ularning izlanishlari arbitraj sudlarida yuridik tushunchalaridan foydalanish tartibi va qoidalari yoritilgan. Shuningdek, ishda soha mutaxassislarining yuridik tushunchalari bilan ishlashi yuzasidan tavsiyalar taqdim etilgan.

M.Galdianing izlanishlari esa huquqiy lingvistikaga bag‘ishlangan edi. Unda huquqiy tushunchalarning tilshunoslikka doir qoidalari xususida so‘z boradi. Huquqiy lingvistikasidagi tushunchalarning mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan.

Natalja Frieman arbitraj sohada yuridik tushunchalari bilan bog'liq muammolarga aloqador izlanish olib borgan. Bu esa arbitraj sohadagi muammolarni hal etish imkoniyatini yengillashtirishi va sudyalarning faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Yuqoridagi ilmiy manbalarda yuridik tushunchalari huquqshunoslik fani muammosi sifatida yoritilgan. Navbatdagi bayon etayotgan manbalarimizda esa muammolar psixologiya fani bilan aloqadordir. Shunday bir toifa tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda psixologiya bilan huquqiy masalalarning o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri va unga kognitiv yondashish masalalari o'rin olgan.

Xorijiy tadqiqot manbalari bilan tanishganda tadqiqotlar turmushning alohida sohalarida qo'llaniladigan tushunchalarni qo'llanish masalasiga bag'ishlanganligi aniqlandi.

Shuningdek, yuridik tushunchalarni shakllanish qonuniyatlari talqini borasidagi izlanishlarda ko'zda tutilgan masalalar biz tadqiq etadigan muammoning to'liq tafsiloti uchun chuqur ahamiyat kasb etishi, ularning metodologik asos ekanligidir.

Tushunchalarni pedagogik jihatdan o'zlashtirish muammosiga keng ko'lamdagi tadqiqotlar bag'ishlangan. Tadqiqotlar muammoni o'rganish predmeti, usullari, yo'nalishlari va obyektiga ko'ra turli xil xususiyatlarga ega. O'quvchilarda tushunchalarni tarkib toptirishning masalasi turli ta'lim bosqichlarida, ta'lim texnologiyalariga, usullari va ta'lim mazmuniga muvofiq amalga oshirilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllanish ko'lami ko'proq tabiiy fanlar ulushiga to'g'ri kelib, ijtimoiy-gumanitar fanlarga doir tushunchalarni tarkib toptirish nisbatan kamroq amalga oshirilganligi kuzatiladi. O'quvchilarda yuridik tushunchalarini o'zlashtirish muammosi esa pedagogik jabhadan kam o'rganilgan deyishga asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

13. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 80 b.
14. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2008 yil.
15. *Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.*
16. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 20 сентябрь БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи/ Халқ сўзи”, 2017 й, 23 сентябрь №192 (6886).
17. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

18. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.

19. Safarovich Q. O. et al. O‘quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta‘sir modeli //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 382-386.

20. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.

21. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 454-462.

22. Safarovich Q. O. et al. Maktab yoshidagi o‘quvchilarni ma‘naviy shakllanishida psixologlarning o‘rni //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 156-161.

Internet saytlari

23. http://fikir.uz/posts/Fikr_psixologiya.

24. <http://lex.uz/pages/getpage.aspx>.